

ALISHER NAVOIYNING “ASHRAQAT MIN AKSI SHAMSIL...” G‘AZALI TAHLILI

Ergasheva Nilufar Akramjon
qizi,
O‘zbekiston Milliy universiteti
Jurnalistika va o‘zbek filologiyasi fakulteti talabasi.

Annotatsiya: Ushbu g‘azalda hazrat Navoiyning “G‘aroyib us-sig‘ar”ning birinchi – “Ashraquat min aksi shamsil...” bilan boshlanadigan g‘azali tahlil qilinadi. Badiiy san’atlari keng muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: “Xazoyin ul-moniy”, “G‘aroyib us-sig‘ar”, “Ashraquat min aksi shamsil...”, Najmiddin Komilov, Nusratullo Jumaxo‘ja, Nazora Bekova, Alibek Rustamov, Jasurbek Mahmudov, O‘tkir Yo‘ldoshev, “uslub xaysiyati” va hokazo.

Navoiy chin ma’noda so‘z san’ati daholaridan biri. Bu dahoning ilmdagi mehnati “Xazoyin ul-moniy” kulliyotida ham ravshan ko‘rinadi. Ushbu devonlar turkumi Husayn Boyqaroning *“farmoni vojiz ul-iz’oni”* (itoat qilishga majbur farmoni) bilan tuzilgan. Bilamizki, ushbu kulliyot umrning 4 fasli asosida to‘rt devondan tashkil topgan. Navoiy kulliyotining har bir devonini Alloh hamdi bilan ochadi. “G‘aroyib us-sig‘ar”ning birinchi – “Ashraquat min aksi shamsil...” bilan boshlanadigan g‘azali nafaqat “G‘aroyib us-sig‘ar”ga, balki butun “Xazoyin ul-maoniy”ga debocha ekanligi barchamizga ayon. “An’anaga muvofiq g‘azal matla’ining birinchi misrasi arab tilida bitiladi. Xuddi shu arabcha jumla mazmuni keying baytlarda davom ettiriladi va shoir nazarda tutgan ma’nolar birin-ketin ravshanlashib, turli tashbeh-timsollar, istilohlar bilan o‘quvchiga yetkaziladi”¹.

G‘azal bizgacha ko‘plab navoiyshunoslar tomonidan tahlil qilingan. Va hali yana uzoq muhokamalar davom etadi. Ustoz olimlardan, Najmiddin Komilov, Nusratullo Jumaxo‘ja, Nazora Bekova, Alibek Rustamov, Jasurbek Mahmudov, O‘tkir

¹ Комилов Н. Маънолар оламига сафар. – Т.: Tamaddun, 2012. – Б. 11.

Yo'ldoshev kabi adabiyotshunoslarning tahlillari bir necha marotaba nashriyot va matbuot yuzini ko'rgan.

Ushbu g'azalni adabiyotshunos olim A.Rustamov "Alisher Navoiy ijodining dasturi"² deb ataydi. G'azalda aks etgan mazmun faqatgina "G'aroyib us-sig'ar"ga emas, balki butun kulliyotga xosdir. Shoirning ta'biriga ko'ra ham, bu g'azalning "uslub xaysiyati"ni anglamasdan turib, devondagi boshqa g'azallarning g'oyalar olamini tushunish behad mushkuldir. Ushbu g'azalni adabiyotshunos N.Bekova "Ma'naviy-badiiy hamdlar sirasiga kiradi", – deya ta'riflaydi. Bu guruhga kiruvchi hamd g'azallarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular o'z mazmun e'tiboridan Haqning qudrati, yuksak san'atini madh etish orqali ma'rifat g'oyalarini tarannum etadi, ommalashtiradi. Mazkur g'azallar negizida ma'rifiy g'oya, axloqiy-falsafiy qarashlar o'rin oladi. G'azal tahlilidan ham ko'rishimiz mumkinki, undagi badiiy obrazlar, timsollar ikki ma'noli xususiyatga ega emas, so'zlarning ham zohiriy, ham botiniy ma'nosi faqat Haqqa tegishlidir³.

"Aslida devondagi "avvalgi g'azal" (shoir ta'kidiga ko'ra) Allohga hamd bilan boshlanishi lozim. Biroq devonlarning majmuasidagi o'rniga binoan birinchi g'azal komil inson madhiga bag'ishlangan"⁴.

Biz tahlilga tortayotgan baytlar fikr yuritayotganimiz iqtibos san'atining yorqin namunalaridandir:

Ashraqat min aksi shamsil-ka'si anvorul-hudo,

"Yor aksin mayda ko'r" deb jomdin keldi sado.

Baytni tahlil qilishdan avval bilib olishimiz kerak bo'lgan istilohlarni e'tirof etsak:

Aks – ilohiy nurning tajallisi, porlab, jilolanib ko'rinishi.

Shamsil-ka's – Quyosh kosasi. tushuni

Anvor – nurlar.

² Rustamov A. Shoirning birinchi gazali // Sharq yulduzi. –1987. №3. – B. 175.

³ Batafsil ma'lumot olish uchun qarang: Beкова Н. Алишер Навоийнинг ҳамд газаллари ва "Рух ул-кудс" қасидасининг бадийати. Фил.ф.н...дис. – Т.: 2003. – Б. 21.

⁴ Beкова Н. Юкоридаги асар. – Б. 43.

Hudo – hidoyat.

Yor – orifona g‘azal ekanligiga asoslangan holda Alloh taolo nazarda tutilgan.

May – ichimlik. Orifona ma’noda ilohiy tajallidan, ishqdan masrurlik, muhabbat zavqining to‘lib-toshishi.

Jom – may ichiladigan idish, kosa. Bu yerda orif inson qalbi; ilohiy tajalli aks etgan moddiy dunyo, borliq.

Ushbu baytda iqtibos san’atidan foydalanilgan bo‘lib, faqat bir so‘z – “Ashraqat” so‘zi istifoda etilgan. “Zumar” surasining 69-oyatidan iqtibos keltirilgan:

وَأَشْرَقَتِ الْأَرْضُ بِنُورِ رَبِّهَا وَوُضِعَ الْكِتَابُ وَجَاءَ بِالْأَنْبِيَاءِ وَالشُّهَدَاءِ وَقُضِيَ بَيْنَهُم بِالْحَقِّ وَهُمْ لَا يُظْلَمُونَ

{*Va ashraqatil-ardu binuuri robbihaa va vudi’al-kitaabu va jiia binnabiyyiina vash-shuhadaai va qudiya baynahum bil-haqqi va hum laa yuzlamuuna*}

Ma’nosi: “Va yer Robbi nuri ila **yorishdi**. Kitob qo’yildi. Payg‘ambarlar va guvohlar keltirildi. Ular orasida haq ila hukm chiqarildi. Ularga zulm qilinmadi”⁵.

Ashraqat so‘zi chiqmoq, porlamoq ma’nosidagi “sharaqa” so‘zi bilan o‘zakdosh. Endi baytning tahliliga o‘tsak: *Quyosh kosasining aksidan hidoyat nurlari porlab chiqdi. Allohning jamolini uning tajallisida ko‘r, deb olamdan sado chiqdi*. Baytning zohiriy ma’nosini anglamoq uchun, avvalo, mashriq zamindan endigina ko‘tarila boshlagan quyosh tasvirini ko‘z oldimizga keltirsak, yarmigacha ko‘tarilgan quyosh xuddi yarmigacha may, ya’ni nur to‘ldirilgan kosaga o‘xshaydi. U oddiy kosa emas, balki hidoyat nurlari – may to‘la jomdir. Jom – quyosh, may – uning nurlari. U dunyoni yoritar ekan, haqiqiy Yor jamoli namoyon bo‘ladi. Shoir quyosh chiqqanidan so‘ng Yorning go‘zalligi yanada yorqinroq namoyon bo‘lishini aytib, undan bahramand bo‘lishga chaqirmoqda. Zero, quyosh jomida yorishgan ma’rifat mayi – ma’rifat nurlari tufayli olam yorishadi, Yorning aksi to‘laligicha bor bo‘yini ko‘rsatadi. Botiniy ma’nosiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, Navoiy bu o‘rinda ilohiy tajalli bilan moddiy olam insonda birlashgan degan vahdat ul-vujud g‘oyasini ilgari suradi: may bilan jom orasida shunday bir yagonalik hosil bo‘ladiki, qaysi dunyo, qaysi iloh ekanligini ajratish mumkin bo‘lmay qoladi. Boshqa sharhlarga ko‘ra, shoir bu baytda iqtibos

⁵ Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Тафсири Хилол. 5-жуз. – Т.: Hilol-nashr, 2022. – Б. 231.

san'atidan – “ashraquat” so‘zidan faqatgina so‘z qo‘llash uchun, devonning birinchi g‘azali arabcha so‘z bilan boshlanishi kerak degan qoidaga bo‘ysunish nuqtayi nazaridan emas, oyatning umumiy mazmuniga ham ishora tariqasida foydalanilgan. Ya’ni oyatda Qiyomat kuni mashhargohdagi ahvol: mahshargohning faqat Alloh nuri bilan yoritilishi o‘sha kuni quyosh bo‘lmasligidan dalolat bermoqda. Qur’oni karimning “Takvir” surasi 1-oyatida “Quyosh o‘rab qo‘yilganida”, – deb marhamat qilinadi. Demak, ilohiy Kalomning dalolatiga ko‘ra, Qiyomat kuni quyosh bo‘lmaydi. Adabiyotshunos Jasurbek Mahmudovning sharhiga ko‘ra: “Navoiy hazratlari: “Ey ma’rifat istovchilar, hali quyosh nurlari borligida, hali jom – quyoshdan may – ma’rifat nurlari yog‘ilib turgan paytda “Yer Parvardigorning nuri bilan yorishgunga qadar...” ma’rifatdan bahramand bo‘lib qolinglar. Vaqtini g‘animat bilinglar”, – demoqchi”.

Hazrat Navoiy matla’da boshlangan fikrni maqta’da xulosalaydi:

Tashnalab o‘lma, Navoiy, chun azal soqiysidin,

“Ishrabu, ya ayyuhal-atshon” har dam kelur nido.

Azal soqiysi – Alloh taolo.

Ayyuhal-atshon – tashnalar.

Nido – ovoz, sado.

E’tibor bersak, g‘azal iqtibos san’ati bilan boshlanib, iqtibos san’ati-la yakunlangan. “Ishrabu” so‘zi ichmoq ma’nosidagi “shariba” so‘zining buyruq maylidagi ifodasi. Ushbu so‘z Qur’oni karimning “Baqara” surasi 60-oyatida, “A’rof” surasi 31-oyatida, “Tur” surasi 19-, “Haqqo” surasi 24- va “Mursalat” surasi 43-oyatlarida keltirilgan. Baytning ma’nosiga yuzlanadigan bo‘lsak, shoir o‘ziga, o‘zi bilan bir qatorda jumla insonga murojaat qilib, tashnalab o‘lma, azaliy zot – Parvardigori olamning hidoyat nuridan bebahra qolma, chunki Uning O‘zi “Ichinglar, ey tashnalar” deb nido qilmoqda.

“Baqara” surasining 60-oyati Navoiy ishora qilgan mazmunga to‘la mos tushadi:

وَإِذِ اسْتَسْقَىٰ مُوسَىٰ لِقَوْمِهِ فَقُلْنَا اضْرِبْ بِعَصَاكَ الْحَجَرَ فَانْفَجَرَتْ مِنْهُ اثْنَتَا عَشْرَةَ عَيْنًا قَدْ عَلِمَ كُلُّ أُنَاسٍ مَّشْرَبَهُمْ كُلُوا وَاشْرَبُوا مِنْ رِّزْقِ اللَّهِ وَلَا تَعْتُوا فِي الْأَرْضِ مُفْسِدِينَ

{Va izi-stasqoo muusaa liqovmihii faqulnadrib bi'asookal-hajaro fanfajarot minhusnataa 'ashrota 'aynaa, qof 'alima kullu unaasin mashrobahum, kuluu vashrobuu min rizqillaahi va laa ta'sav fil-ardi mufsiidiina}

“Muso o‘z qavmini serob qilishni so‘raganida, “Hassang bilan toshni ur!” deganimizni eslang. Bas, undan o‘n ikki buloq otilib chiqdi. Har qabila o‘z suvini bildi. Alloh bergan rizqdan yeb-ichinglar. Yer yuzida buzg‘unchilik ustiga buzg‘unchilik qilmanglar”⁶.

“Insonni yaratishdan maqsad ko‘ngilning qudratini ko‘rsatish edi. May (ishq) – ilohiy tajalli, ko‘ngil tashnaligini qondirib, ilohiy mohiyatga eltuvchi vosita. Qur’oni Karimning “Ahzob” surasi 72-oyatida shunday deyiladi:

إِنَّا عَرَضْنَا الْأَمَانَةَ عَلَى السَّمَوَاتِ وَالْأَرْضِ وَالْجِبَالِ فَأَبَيْنَ أَنْ يَحْمِلْنَهَا وَأَشْفَقْنَ مِنْهَا وَحَمَلَهَا الْإِنْسَانُ إِنَّهُ كَانَ ظَلُومًا جَهُولًا

{Innaa arodnal-amaanata 'alas-samaavaati val-ardi val-jibaali fa abayna an yahmilnahaa va ashfaqna minhaa va hamalahal-insaanu innahuu kaana zoluuman jahuulaa}

“Albatta, Biz bu omonatni osmonlarga, yerga va tog‘larga taklif qildik. Bas, ular uni ko‘tarishdan bosh tortdilar va undan qo‘rqdilar. Uni inson ko‘tardi. Darhaqiqat, u o‘ta zolim va o‘ta johildir”.

Oriflar omonat so‘zini “ishq” deya sharhlaganlar. Ishq esa faqat insonga xos bo‘lib, boshqa mavjudotlar undan bebahradirlar. Inson jamiki mavjudotning sirini bilishga tashna. Ma’rifatga shaydo insonning azaliy va adabiy vahdatga tashnaligini ishq qondiradi. Insonni nodonlik, gumrohlikdan qutqarib, ilohiy zotning bir bo‘lagi ekanligini anglatib, baqo olamiga olib boradi.

G‘azalda olamning ilohiy mohiyati va buni anglagan inson zavq-u shavqi, qalb sururi ifodalangan. Hududsiz bu olam Allohning tajalli nuri bilan barhayot, munavvar va jozibali. Shaksiz, shu qudrat barcha jismlarni bir-biri bilan vobasta etadi, ulug‘ muntazamlilikni saqlaydi, barqaror va poydor etadi. Ushbu nur Quyosh ko‘rinishida beqiyos ne‘mat bo‘lib, har sahar porlashi, barcha jonzotlar, jumladan, Inson qalbini

⁶ Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Тафсири Хилол. 1-жуз. – Т.: Hilol-nashr, 2022. – Б. 51.

shodlikka limmo-lim etishi ayon haqiqat. Ammo Quyosh ham bir timsol, bir tashbeh, xolos. Ilohiy haqiqat, tajalli bundan-da ulkan, ul jami borliqni, jumladan quyoshni ham qamrab oladi. Bu Haqiqat va beintiho Quدراتni orif inson, piri komil anglab yetadi. Buni anglagan orif, vali zotlar ham qalblari porlab, shu ma'rifat nurini boshqa talabgorlarga yetkazadilar. Yor aksi bilan oshno etadilar”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Комилов Н. Маънолар оламига сафар. – Т.: Tamaddun, 2012. – Б. 11.
- 2.Рустамов А. Шоирнинг биринчи ғазали // Шарқ юлдузи. – 1987. №3. – Б. 175.
- 3.Бекова Н. Алишер Навоийнинг ҳамд ғазаллари ва “Рух ул-қудс” қасидасининг бадиияти. Фил.ф.н...дис. – Т.: 2003. – Б. 21.
- 4.Бекова Н. Юқоридаги асар. – Б. 43.
- 5.Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 5-жуз. – Т.: Nilol-nashr, 2022. – Б. 231.
- 6.Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 1-жуз. – Т.: Nilol-nashr, 2022.
- 7.Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 1-жуз. – Т.: Nilol-nashr, 2022. – Б. 51.